

Nabiyeva Rushana Jamol qizi
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: rushana.nabiyeva@internet.ru
Tel: +998 90 617 12 20

O‘ZBEK TILIDAGI OZIYQ-OVQAT YANGI O‘ZLASHMALARINI GENETIK TAVSIFLASH XUSUSIDA

Annotatsiya: Leksikadagi oziq-ovqat o‘zlashmalarining tarixiy rivojlanishi va taraqqiy etishini genetik tadqiq etish ularning manba tillarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu maqolada oziq-ovqat nomlari o‘zlashmalarini tashkil etuvchi leksik-semantik to‘dalardagi o‘zlashma qatlam birliklari miqdorini belgilash va genetik tahlil qilish haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zlashma oziq-ovqat nomlari, pazandachilik leksikasi, snek (gazak) nomlari, tavsifiy oziq-ovqat nomlari, fast-fud taomi nomlari.

Набиева Рушана Жамол кизи,
Каршинский государственный университет, докторант (PhD)

ПО ГЕНЕТИЧЕСКОМУ ИЗУЧЕНИЮ НОВЫХ НАЗВАНИЙ ПРОДУКТОВ ПИТАНИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация: Генетическое изучение исторического развития и эволюции пищевых слов в словаре позволяет определить их исходные языки. Данная статья посвящена генетическому анализу и выявлению количества единиц рецептивного слоя в лексико-семантических группах, составляющих восприятие названий продуктов питания.

Ключевые слова: названия продуктов питания, кулинарная лексика, названия закусок, описательные названия продуктов питания, названия фаст-фудов.

Nabiyeva Rushana Jamol qizi,
Karshi State University, PhD student

ON THE GENETIC STUDY OF NEW LOANWORDS OF FOOD PRODUCTS IN THE UZBEK LANGUAGE

ANNOTATION Genetic study of the historical development and evolution of food words in the dictionary makes it possible to determine their original languages. This article is devoted to genetic analysis and identification of the number of units of the receptive layer in lexical-semantic groups that make up the perception of loanword food names.

Keywords: food names, culinary vocabulary, snack names, descriptive food names, fast food names.

Kirish

Har qanday til leksik-semantik tizimida ma’lum bir lug’aviy-ma’noviy guruhlarining shakllanishi uzoq vaqt davomida sodir bo‘ladigan tarixiy jarayon bo‘lib,

bunda qardosh va qardosh bo'lmagan tillar o'zaro bir-biriga ta'sir etadi. Bu jarayonda tildagi sohaviy leksikani genetik tavsiflash, tabiiyki, lug'at zaxirasini boyitgan o'zlashmalarining manba tillarini aniqlashga yordam beradi. Ma'lumki, tilda so'z o'zlashish hodisasi murakkab lingvistik jarayon sanalib, bu jarayonda lingvistik omil sifatida tillarning aloqasi muhim ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar tahlili

O'zbek tili leksikasi tarixan fors-tojik, arab, rus tillari bilan aloqada bo'lgani, o'zbek tili lug'at zaxirasining ushbu tillar so'zlari hisobiga boyishi, hamda ularning genetik tahlili masalalari E.Begmatov [1], A.Hojiyev [2], O.Jumaniyozov [3], T.I.Rahmonov [4], O.Shukurov [5] kabi tilshunos olimlar tomonidan maxsus o'rganilgan. O'zbek tilshunosligida sohaviy leksikani genetik tavsiflash N.Mamatov [6], S.Ibrohimov [7], M.Asomutdinova [8], M.Xudayarova [9], Sh.Usmanova [10] tadqiqotlarida uchraydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada leksikadagi oziq-ovqat o'zlashmalarining tarixiy shakllanishi va taraqqiy etishini genetik tadqiq etish ularning manba tillarini aniqlash, asosan, bu jarayonda qaysi tilning dominant ahamiyat kasb etayotgani, oziq-ovqat nomlari o'zlashmalarini tashkil etuvchi leksik-semantik to'dalarda o'zlashma qatlam birliklari miqdori ko'lamini tahlil qilish imkonini berishi tadqiq qilindi. Zeroki, o'zbek tilining boshqa tillar bilan aloqasi turli miqdor va sifatiy ko'rinishlarga ega bo'lib, ba'zi tillar o'zbek tili leksikasida sezilarli iz qoldirmagan. Masalan, xitoy tilidan o'tmishda *choy*, *lag'mon*, *shiypon*, *jambul* so'zlarigina o'zlashgan [11]. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda o'zbek tili leksikasidan o'rin olgan oziq-ovqat o'zlashmalarining tarixiy-etimologik manbalari "O'zbek tili leksikologiyasi" asarida alohida misollar bilan ko'rsatib berilgan. Masalan, unda fors-tojik tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan sabzavot mahsulotlari – *lo'viya (loviya)*, *mosh*, *no'xat*, *sholi*, *jo'xori*, *guruch*, *bodring*, *sabzi*, *piyoz*, *garmdori*, *zira*, *kashnich*, *turp*, *pista*, *shalg'om*, *kadu*, *murch*, *zig'ir*, *karam*, *kunjut* kabilar; oziq-ovqat va ichimlik nomlari – *boda*, *bo'za*, *kabob*, *yog'*, *go'sht*, *zog'ora*, *novvot*, *shakar*, *may*, *mag'iz*, *no'shoba*, *palov*, *pashmak*, *osh*, *non*, *qand*, *tuxum*, *moshova*, *parvarda*, *sharbat*, *no'xatsho'rak*, *shirgurunch*, *shirkadi*, *chalpak*,

shakarob kabi nomlar; arab tilidan *xamir, sharob, asal, halvo, aroq, mastoba, murabbo, musallas, qiyom* kabi o'zlashmalar; rus tilidan *banan, kartoshka, limon, rediska, pamil choy, pivo, konfet, kvas, limonad* kabi nomlar; ruscha-internatsional *kefir, keks, kolbasa, sosiska, kisel, bifshteks, brinza, bulka, bulyon, buterburod, vermishel, lapsha, vingret, garnir, gorchitsa, ikra, kasha, konserva, margarin, povidlo, salat, tvorog, tomat, tort, shokolad, karamel, marmelad, kofe, kakao, likyor* kabi nomlar keltirib o'tilgan [11]. Biroq ushbu noyob kitobning 1981-yilda nashr etilgani, salkam yarim asrlik vaqt mobaynida uning o'rnini to'ldiruvchi zamonaviy manba yaratilmagani ham, ayniqsa, yosh tadqiqotchilar uchun tilshunoslikning bir bo'shlig'i sifatida ko'rinyapti.

Tahlillar va natijalar

“O'zbek tilining izohli lug'ati”ga tayanib aytish mumkinki, o'zbek tili leksik qatlamining genetik manbalari manba tillar kesimida tahlil qilinganda 29 til (forscha, arabcha, lotincha, yunoncha, fransuzcha, ruscha, inglizcha, nemischa, italyancha, gollandcha, ispancha, mo'g'ulcha, polyakcha, hindcha, sanskritcha, yaponcha, xitoycha, turkcha, ukraincha, fincha, shvedcha, malayyacha, islandcha, chexcha, yahudiycha, gruzincha, vengercha, norvegcha, rumincha) dan o'zlashgani va bu manba tillarning 21 (mo'g'ulcha, sanskritcha, fincha, islandcha, chexcha, yahudiycha, shvedcha, norvegcha tillardan oziq-ovqat nomlari o'zlashgani kuzatilmadi) tasidan oziq-ovqat o'zlashmalari o'zbek tili leksikasida qayd etilishini kuzatish mumkin.

O'zbek tili leksikasini boyitgan fors-tojikcha oziq-ovqat nomi o'zlashmalari “O'zbek tilining izohli lug'ati” [12] asosida tahlil qilinganda salmoqli (120 ta) miqdorni tashkil etishi va ular tarkibidagi *meva va sabzavot nomlari* boshqa oziq-ovqat o'zlashmalari leksik-semantik to'dalariga qaraganda miqdoran ko'p ekanligi aniqlandi. Ya'ni, fors-tojik tilidan o'zbek tiliga *anjir, anor, behi, bodom, gilos, do'landa, zardoli, nok, obaki (uzum navi), obinovvot (o'rik navi), olu, olhirot, pista, soyaki (uzum navi), xurmo, chillaki (uzum navi), chilon, shakarak (qovun navi), shaftoli* kabi meva nomlari o'zbek tili tarixiy taraqqiyotining turli davrlarida o'zlashgan. Arabcha oziq-ovqat o'zlashmalari esa kamroq bo'lib, 33 tani tashkil etadi. Bular orasida *ovqat, taom, qutloyamut* birliklari umumiy mazmunda oziq-ovqat mahsulotlari nomi ma'nosini anglatadi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” [12] da ayrim manba tillardan birgina oziq-ovqat nomi o‘zlashmalari qabul qilingani ham kuzatildi va bu manba tillardan oziq-ovqat nomlari qabul qilinishidagi o‘ziga xos passiv jarayondir. Bular yaponcha “soya” o‘simligi – dukkaklilar oilasiga mansub, loviyaga o‘xshash bir yillik o‘simlik va uning oziq-ovqat sanoatida keng qo‘llanadigan doni; malayyacha “*mango*” mevasi – Janubiy Osiyoning tropik o‘rmonlarida o‘sadigan doimo yashil daraxt (ayrim turlarining ovalsimon shirin xushbo‘y mevasi shundayligicha yoki tuzlangan holda ovqat sifatida ishlatiladi); gruzincha “*borjomi*” suvi – (Gruziyaning Borjomi shahri nomidan) shifobaxsh mineral suv; rumincha “*brinza*” sut mahsuloti – asosan qo‘y sutidan, shuningdek, sigir, echki sutidan yoki ularning aralashmasidan tayyorlangan sho‘rtang pishloq kabilardir.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” [12] asosida tahlil qilinganda ingliz tilidan o‘zbek tiliga taom nomlari – *bifshteks*, *gamburger*; ichimlik nomlari – *viski*, *pepsi-kola*, *spirt*, *kokteyl*; go‘sh mahsuloti nomi – *broyler*; non mahsuloti nomi – *tost*; konservalangan mahsulot nomlari – *jem*, *ketchup* kabi 12 turdagi oziq-ovqat o‘zlashmalari qabul qilinganligini kuzatish mumkin. Bugungi kunda ingliz tilidan o‘zbek tiliga oziq-ovqat mahsulotlari nomlarining kirib kelishi va jonli tilda ancha faollashayotganini tadqiqot uchun yig‘ilgan materiallar ko‘lami ham asoslaydi. Birgina yangi ichimlik nomlari misolida tahlil qilinsa, bu miqdor ko‘pligini va o‘zbek tili gastronomik diskursida ichimlik nomlarining o‘zi ham lug‘aviy-mavzuviy to‘dani hosil qilib ulgurganini ko‘rsatadi. Masalan, *egg-nog* – tuxum oqi va sutga asoslangan shirin ichimlik bo‘lib, ingliz tilida *egg* – tuxum va *nog* – spirtli ichimliklar ichish uchun mo‘ljallangan krujka ma’nosini anglatuvchi so‘zlardan kelib chiqqan. Rus tilida uchbu ichimlikning “tuxumli pivo” ma’nosini beruvchi “*gogol-mogol*” ichimligi mavjud. *Martini* – Yevropada mashhur kokteyl turlaridan biri bo‘lib, inglizcha *martinez* so‘zidan kelib chiqqan. *Milksheyk* – sut va muzqaymoqdan tayyorlangan shirin ichimlik, kokteylning bir turi. *Milksheyk* boshqa kokteyllardan farqli ularoq faqat sigir suti emas, balki soya, bodom, kokos kabi o‘simlik sutlaridan ham tayyorlanishi mumkin. Shu o‘rinda aytish joizki, umuman, alkogolli va alkogolsiz kokteyllarning mashhurlikka erishishi elektr blenderlarning ixtiro qilinishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu turdagi ichimliklarni iste’mol

qilish, asosan, yoshlar orasida keng tarqalgan. *Smuz* – sut, sharbat, muz kabilarga rezavor mevalar, bir turdagi sabzavotlar solib blender yoki mikserda aralashtirib tayyorlanadigan quyuq ichimlik. Inglizcha smuz (*smoothie*) *silliqlik, yumshoqlik, yoqimli* ma’nosini anglatadi.

Umuman olganda, o‘zbek tilida faol iste’molda bo‘lgan oziq-ovqat o‘zlashmalarining genetik manbalarini tillar kesimida quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

1-jadval

Yangi oziq-ovqat o‘zlashmalarining genetik manbalari

No	manba til nomi	iste’molda bo‘lgan oziq-ovqat nomi
1.	ingliz tili	milksheyk, smuz, brauni, fadj (sutli kofe), greypfrut, keshyu (quruqlik meva), kreker, marshmello, pankeyk, pomelo, popkorn, sendvich, skon, snek, spred, strips, trayfl, chips, chizburger, chizkeyk, bayts
2.	rus tili	klubyaka, kurnik, okroshka, solyanka, vatrushka, xolodes, shi, medovik, sirniki, sirok
3.	lotin tili	annona, aroniya, avokado, babassu, brokkoli, bryukva, golubika, granula, guava, kivano, mimoza, pulpa
4.	yunon tili	yuyuba, feta, fizalis, oladiy, suvlaki
5.	fransuz tili	olivye (salat), omlet (taom), beshamel (sous), beze (pishiriqlik), bofor (pishloqlik), frikadelka, fua-gra (pishloqlik), konfityur, sharlotka, ratatuy
6.	italyan tili	amaretto, biskotti, boloneze, budino, espresso, fokachcha, fuzilli, gorgonzola, kannoli, krostata, latte, lazanya, maskarpone, mozzarella, pekorino, penne, pitsa, radikko, rikotta, spagetti, tartufo, tiramisu
7.	ispan tili	mammeya, daykiri, gazpacho, marsipan, oranjelo, orchata, paloma, pinto loviyasi, sangriya, xabanero, xalapeno, chupa-chups

8.	gruzin tili	tabaka, tkemali, xachapuri
9.	xitoy tili	bok-choy (karam navi), funchoza, babl-choy
10.	arman tili	lavash, matsoni, xashlama, shourma, chechil
11.	turk tili	dondurma, doner-kabob, funduk
12.	arab tili	kuskus, laxmadjun, muhallebi, rohat -ul luqum, falafel
13.	yapon tili	kinako, lokva, sushi, vasabi
14.	fin tili	paxta (sut mahsuloti nomi)
15.	qrim-tatar tili	Cheburek
16.	polyak tili	Povidlo
17.	venger tili	Gulyash
18.	koreys tili	Kimchi
19.	ukrain tili	Kobachok
20.	malay tili	agar-agar (jelatin o‘rnini bosuvchi sabzavot)
21.	portugal tili	kokos, marakuya
22.	hind tili	masala choyi, chapati
23.	nemis tili	pashtet, kambozola

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘zbek tili leksikasidan joy olayotgan oziq-ovqat o‘zlashmalarining genetik manbalari so‘nggi yillarda miqdoran ko‘paydi va ular orasida ingliz tilidan o‘zlashayotgan oziq-ovqat nomlari ustunlik kasb etmoqda. Albattaki, oziq-ovqat nomlarining genetik manbalarini tadqiq qilish bevosita va bilvosita o‘zlashayotgan nomlarni aniqlash, izohli lug‘atlarda etimologik ma’nosini ochib berish imkonini beradi.

Foydalanigan adabiyotlar:

1. Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. –Toshkent: Fan, 1985. – B. 121.
2. Hojiyev A. Sovet davrida o‘zbek adabiy tilining taraqqiyoti. III jildli. III jild. So‘z yasalishi va leksika. –Toshkent: Fan, 1988. –188 b.

3. Jumanioyozov O. O'zbek tilidagi german tillari o'zlashmalari. Monografiya. – Toshkent: Fan, 1987. – 104 b.
4. Rahmonov T.I. Hozirgi o'zbek tilidagi arabcha o'zlashma so'zlar semantik tuzilishidagi o'zgarishlar: Filol. fan. nomz. ... diss. – Namangan: 1994. –120 b.
5. Shukurov O.U. O'zbek tili zamonaviy o'zlashmalarining evolyutsiyasi, transformatsiyasi va leksikografik talqini masalalari (mustaqillik davri) //filol. fan. doktori (DcS) ... diss. avtoref. –Qarshi: 2023. –B. 255.
6. Маматов Н. Узбекская хлопководческая терминология: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Ташкент: 1955. – С. 16.
7. Ibrohimov S. Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi: Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. – Tashkent: 1961. – B. 16.
8. Asomutdinova M. O'zbek tilida kiyim-kechak va uning qismlari nomlari: Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent: 1970. –B. 22.
9. Xudayarova M. O'zbek tilidagi taom nomlarining lingvistik tahlili: Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent: 2008. –B. 22.
10. Usmanova Sh.R. Oltoy tillaridagi mushtarak maishiy leksika tadqiqi: filol. fan. doktori (DcS) ... diss. Avtoref. –Toshkent: 2011. –B. 48.
11. O'zbek tili leksikologiyasi. –Toshkent: Fan, 1981. –B. 80.
12. O'zbek tilining izohli lug'ati. V jildli. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2020.